


## 2022- yil yanvar - iyun oylarida uchun Samarqand viloyatida qurilish ishlari

2022- yilning yanvar - iyun oylarida Samarqand viloyatida jami **4 132,8 mlrd. so'mlik** qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar - iyun oylariga nisbatan **108,4 %** ni tashkil etdi.




### 2022- yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.



**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## 2022- yil yanvar- iyun oylarida mulkchilik shakllari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi



**Qurilish ishlari bo‘yicha  
faoliyat ko‘rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar  
soni**

2022- yil 1- iyul holatiga ko‘ra qurilish sohasida ro‘yxatdan o’tgan jami korxona va tashkilotlar soni 3,6 mingta, faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni esa, 3,4 mingtani tashkil etib, o’tgan 2021- yilning mos davriga nisbatan 147 taga ko‘paygan.

2022- yilning yanvar-iyun oylarida o’tgan yilning mos davriga nisbatan fuqarolik obyektlarini qurilishi ishlari hajmi 122,2 % ni tashkil qilib (jami qurilishdagi ulushi 68,4 %) ni tashkil qildi. Bu qurilish sohasida korxona va tashkilotlar sonining ko‘payishiga asosiy omil bo‘lib xizmat qildi.

Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo‘yicha qurilish ishlaring eng yuqori ulushi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g’ri kelib, 2021- yilning yanvar-iyun oylaridagi jami qurilish ko‘rsatkichiga nisbatan 30,1 % ni tashkil etdi.




### **Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)**

	<b>Holatiga ko'ra:</b>		<b>O'tgan yilga nisbatan, (+,-)</b>
	<b>01.07.2021- yil</b>	<b>01.07.2022- yil</b>	
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>3282</b>	<b>3429</b>	<b>147</b>
Samarqand sh.	1138	1165	27
Kattaqo'rg'on sh.	114	139	25
tumanlar:			
Oqdaryo	147	161	14
Bulung'ur	77	76	-1
Jomboy	130	135	5
Ishtixon	153	140	-13
Kattaqo'rg'on	136	142	6
Qo'shrabot	74	78	4
Narpay	84	86	2
Payariq	272	296	24
Pastdarg'om	319	336	17
Paxtachi	68	74	6
Samarqand	144	154	10
Nurobod	61	66	5
Urgut	230	238	8
Toyloq	135	143	8



## Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (% da), 01.04.2022- yil holatiga



**Ma'lumot uchun:** Viloyatda qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Samarqand shahri (34,0 %), Pastdarg'om (9,8 %) va Payariq (8,6 %) tumanlaridir.

2022- yilning yanvar – iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **621,2** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **93,0** % ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **15,0** % ni tahskil qildi.




### Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, %da



**Ma’lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Toyloq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **45,0** %), Pastdarg’om tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **19,7** %), Samarqand shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **10,3** %), va Samarqand (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **8,7** %) tumanlarga to‘g’ri keldi.



## Qurilish ishlari umumi hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar  
■ 2022- yil yanvar - iyun oylarida  
■ 2021- yil yanvar - iyun oylarida

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022- yil yanvar - iyun oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan ko'payish kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **75,0 %** i bajarilib, 2021- yilning yanvar - iyun oylariga nisbatan **9,6 %** punktga ko'payish kuzatildi.


Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **123,9 %** ni tashkil etgan holda **3 098,7 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **10,0 %** ni tashkil etib, **413,1 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar - iyun oylariga nisbatan kamayish kuzatilib, **65,0 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektoring ulushi

Mlrd.so'm




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **75,5** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **78,2 %** ni tashkil qilib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **1,8 %** ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4057,3** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **130,2 %** ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **98,2 %** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da

2022- yil  
Yanvar-iyun  
oylarida



Davlat mulki



Nodavlat mulk

2022- yil  
yanvar – iyun  
oylarida

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2022- yil yanvar-iyun oylarida

67,1 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **67,1%** yoki **2 772,6** mlrd. so'mni tashkil etgan.

21,1 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **585,5** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **21,1 %** ni tashkil etdi.

64,7 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1793,0** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **64,7%** ni tashkil etdi.

14,2 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **394,1** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **14,2%** ni tashkil etdi.



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-iyun oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur’ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so‘m)
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>4 132,8</b>	<b>108,4</b>	<b>2 772,6</b>
Samarqand sh.	1414,5	109,7	1053,3
Kattaqo‘rg‘on sh. tumanlar:	56,9	115,3	43,7
Oqdaryo	309,4	101,9	241,8
Bulung‘ur	119,3	112,2	74,9
Jomboy	176,7	101,8	135,8
Ishtixon	189,5	107,0	141,4
Kattaqo‘rg‘on	114,8	105,1	94,3
Qo‘shrabot	88,3	102,6	72,1
Narpay	108,0	97,7	94,3
Payariq	289,6	114,4	194,1
Pastdarg‘om	271,7	109,5	108,2
Paxtachi	83,6	100,3	82,6
Samarqand	204,3	111,3	83,7
Nurobod	46,4	104,4	16,9
Urgut	216,7	107,3	206,3
Toyloq	443,1	113,2	129,2

\*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shtgan holda



## Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari,%da

2022- yil yanvar-iyun oylarida

3,4




Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

60,7



Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

35,9



Bino va inshootlarni  
qurilishi

3,7



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

68,4



Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

27,9



Bino va inshootlarni  
qurilishi

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Bino va inshootlar qurilishi

ulushi %da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **2,9** % ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **20,8** % punktga ko'payish kuzatildi. Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **10,8** % punktga ko'paygan, **61,2** % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **10,0** % punktga ko'payib **35,9** % ni tashkil etdi.






## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi %da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **19,8 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **8,5%** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **80,2 % (8,6 %** punktga ko'paydi).



2022- yil  
yanvar – iyun  
oylarida


Samarqand viloyatida qurilish ishlari



## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **17,4 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar - iyun oylariga nisbatan **-3,4 %** punktga kamaydi. **82,6 %** ulush kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **3,4 %** punktga kamayish



2022- yil  
yanvar – iyun  
oylarida

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-iyun oylarida

### Eng yuqori hajm

(mlrd. soʻm)

Samarqand sh.  
1414,5

1

2

Toyloq  
443,1

Payariq  
289,6

3



### Eng kichik hajm

(mlrd. soʻm)

Nurobod  
46,4

2

1

Qoʼshrobot  
88,3

Paxtachi  
83,6

3



## SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**Samarqand viloyati  
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

*Aloqa telefoni: (66) 230-45-32*

**2022- yil  
yanvar – iyun  
oylarida**

**Samarqand viloyatida qurilish ishlari**